

# **Davlat xizmati reglamenti**

## **O'zbekiston Respublikasidagi avtomobil yo'llari, yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash loyihalarini kelishish**

### 1. Xizmatni yoritish

#### 1.1. Xizmat nomlanishi

O'zbekiston Respublikasidagi avtomobil yo'llari, yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash loyihalarini kelishish.

#### 1.2. Xizmat natijasi

Loyiha kelishlganidan so'ng pudratchi tashkilot tomonidan yangi qurilgan avtomobil yo'li, yo'l inshooti, temir yo'l kesishmasi davlat qabul komissiyasiga topshirilishi, shuningdek, mazkur ob'ektlarni rekonstruktsiya qilish yoki ta'mirlash ishlarini boshlashi mumkin.

#### 1.3. Xizmat ko'rsatish organlari va ruxsat beriladigan joy

Avtomobil yo'llari, yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanayotgan tashkilot tegishli loyihalarni O'zbekiston Respublikasi IIV Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati (DYHXX) organlari bilan o'rnatilgan tartibda kelishadi.

#### 1.4. Huquqiy asos

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 dekabrda 342-sonli qarori (qarorga 1-ilova).

#### 1.5. Xizmatni oluvchi

Avtomobil yo'llari, yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanadigan tashkilot.

#### 1.6. So'rovni berish muddati

Qonunchilikda belgilangan tartibda, O'zbekiston Respublikasi IIV DYHXX organlariga murojaat etilganidan keyin tegishli loyihalar kelishib beriladi.

#### 1.7. Ijro muddati

Qonunchilikda belgilangan tartibda.

#### 1.8. Tasdiqni berish muddati

Qonunchilikda belgilangan tartibda, murojaat xatini tegishli xujjatlarni ilova etgan holda taqdim etganidan so'ng.

### 2. Xizmat oluvchilarga ma'lumot berish

#### 2.1. Ma'lumot xajmi va tarkibi

Avtomobil yo'llari, yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilot vakillariga loyihalarni kelishish tartibi bo'yicha ma'lumot beriladi.

#### 2.2. Batafsil ma'lumot berish

Avtomobil yo'llari, yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanuvchi O'zbekistondagi tashkilot vakillari loyihalarni kelishish tartibi bo'yicha quyidagi tartibda ma'lumot olishlari mumkin:

xujjatlarni topshirishdan oldin shaxsan DYHXX organlariga murojaat etishsa;

DYHXX organlariga shaxsan telefon orqali murojaat etishsa;

O'zbekiston Respublikasi IIVning veb-sayti ([www.mvd.uz](http://www.mvd.uz)) orqali murojaat etishsa.

#### 2.3. So'rov bo'yicha ma'lumot

Shaxsan murojaat etganida: avtomobil yo'llari, yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlari loyihalarini kelishish va tegishli xujjatlarni taqdim etish yuzasidan og'zaki konsultatsiya beriladi va tushuntiriladi.

Telefon orqali murojaat etilganida: avtomobil yo'llari, yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlari loyihalarini kelishish tartibi og'zaki

tushuntiriladi.

#### 2.4. Xizmat ko'rsatish joyida ma'lumot berish

O'zbekiston Respublikasi IIV DYHXX Yo'l nazorati bo'lim va bo'linmalari.

#### 2.5. Foydalaniladigan xujjat blankasi (formasi)

Tashkilot vakillari xat blankasida murojaat xati kiritishadi.

### 3. Xizmat ko'rsatish

#### 3.1. Ish vaqti

Har kuni (grafik asosida bir kun dam olish kuni).

#### 3.2. Kutish shartlari

Avtomobil yo'llari, yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlari loyihalarini kelishish uchun murojaatlar quyidagi tartibda qabul qilinadi va kelishiladi:

- xududiy YHXB kotibiyati orqali;

- O'zbekiston Respublikasi IIV YHXBB kotibiyati orqali.

a) umumfoydalanuvdagi davlat va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llari, ulardagi yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlari loyihalari – O'zbekiston Respublikasi IIV DYHXX va “Davarxitektqurilish” qo'mitasining hududiy organlari bilan kelishiladi;

b) umumfoydalanuvdagi xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'llari, ulardagi yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlari loyihalari – O'zbekiston Respublikasi IIV DYHXX va “Davarxitektqurilish” qo'mitasining hududiy organlari bilan kelishilganidan so'ng, O'zbekiston Respublikasi IIV YHXBB va “Davarxitektqurilish” qo'mitasi bilan kelishiladi.

Kelishilgan loyihani olish vaqti – qonunchilikda belgilangan tartibda.

### 4. Xizmat ko'rsatish tartibi

#### 4.1. Zarur bo'ladigan xujjatlar

Avtomobil yo'llari, yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlari loyihalarini kelishish uchun:

a) yuqorida qayd etilgan ishlar bilan shug'ullanuvchi tashkilot (yoki uning yuqori organi) tomonidan murojaat xati;

b) ilova etiladigan xujjatlar asl nusxalari – soni zaruriyatga qarab.

#### 4.2. Xizmat uchun undiriladigan xaq.

Avtomobil yo'llari, yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlari loyihalarini kelishish xizmati – tekin.

#### 4.3. Davlat xizmati ko'rsatish bosqichlari

Avtomobil yo'llari, yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilot murojaat etganidan so'ng, xat va ilova etilgan tegishli xujjatlar kelib tushganidan keyin qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi hamda loyihalarning asl nusxalari kelishib beriladi.

#### 4.4. Davlat xizmati ko'rsatishning ichki bosqichlari

Avtomobil yo'llari, yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlari loyihalarining jixozlanishi harakat xavfsizligi nuqtai-nazaridan amaldagi me'yoriy xujjatlar talabilariga javob berishi o'rganib chiqiladi.

#### 4.5. Rad etish asoslari

4.1.-bandda ko'rsatilgan xujjatlar to'liq taqdim etilmasa, shuningdek, avtomobil yo'llari, yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlari loyihalari amaldagi me'yoriy xujjatlar talabilariga asosan harakat xavfsizligiga javob bermasa.

## 5. Sifatini ta'minlash

### 5.1. Sifat ko'rsatkichlari

Yo'l harakati ishtirokchilariga qulay sharoitlar yaratish, YTXlar oldini olish, avtomobil yo'llari, yo'l inshootlari, temir yo'l kesishmalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlarini xavf-xatarsiz muvofaqiyatli yakunlash.

### 5.2. Sifatsiz xizmatdan shikoyat etish

Ko'rsatilgan xizmatdan qoniqish xosil qilinmaganida, qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat etilishi mumkin.